

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.D.Baxronov</b>	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'rni.....	201
<b>H.S.Ergashev</b>	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi .....	207
<b>I.T.Boltaboyev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'rni.....	212
<b>Sh.O'.Ahrorova</b>	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni.....	216
<b>U.X.Kolmatov</b>	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari.....	220
<b>F.B.Rahmonova</b>	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili .....	225
<b>J.Saburov</b>	
Buxoro amirligida tasvvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri ....	230
<b>B.A.Pulatov</b>	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari .....	236
<b>S.S.Evaton</b>	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
<b>A.Sh.Raximov</b>	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi .....	245
SIYOSAT	
<b>Sh.Ismoilov</b>	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'naliш .....	249
<b>D.Sh.Mahkamov</b>	
Hakamlik sudi va davlat sndlari o'rtasidagi farqlar .....	252
<b>R.Nurimbetov</b>	
Shanaxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari .....	255
<b>B.X.Allamurodov</b>	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan) .....	258
<b>M.B.Nabiев</b>	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
<b>N.Madumarova</b>	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida .....	269
<b>A.A.Buriyev</b>	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'rni va bu boradagi xorijiy tajriba .....	273
<b>D.Mamadjonova</b>	
Siyosiy partiyaning faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
TARIX	
<b>Бурхониддин Чалодиддин</b>	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
<b>M.T.Musaev</b>	
Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi .....	292
<b>R.A.Arslonzoda</b>	
Отражение литературной жизни Бухары в "воспоминаниях" Садриддина Айни .....	297



УО'К: 34.05

**SUDLAR ORQALI INTELLEKTUAL MULK OBYEKLTLARI BILAN BOG'LIQ NIZOLARNI  
HAL QILISHNING O'RNI VA BU BORADAGI XORIJUY TAJRIBA**

**РОЛЬ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ, СВЯЗАННЫХ С ОБЪЕКТАМИ  
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ, ЧЕРЕЗ СУДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В ЭТОЙ  
ОБЛАСТИ**

**THE ROLE OF RESOLVING DISPUTES RELATED TO INTELLECTUAL PROPERTY  
OBJECTS THROUGH COURTS AND FOREIGN EXPERIENCE IN THIS AREA**

**Buriyev Abdumannop Abduraxmatovich**  
Farg'ona viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i

**Annotatsiya**

Maqolada intellektual mulk obyektlarining himoyasi bilan bog'liq nizolarning sudsida ko'riliishi, ushbu toifadagi ishlarni ko'rib chiqishda amaliyatda duch kelinayotgan mavjud muammolar va bu boradagi xorijiy tajriba tahlil qilingan. Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sohasi nisbatan yangi va shu bilan birga tez rivojlanayotgan soha bo'lganligi sababli sudsida ham ushbu toifadagi ishlarni soni yil sayin oshib borayotganligi bilan birga mazkur nizolar bir vaqtning o'zida ma'muriy, jinoyat, fuqarolik hamda iqtisodiy sudsida ko'rib chiqilayotganligiga urg'u berilgan. Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarda intellektual mulk bo'yicha ixtisoslashgan sudsalar, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishda O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni haqida batafsil to'xtalingan. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribadan kelib chiqqan holda sohani takomillashtirish yuzasidan tegishli takliflar bildirilgan.

**Аннотация**

В статье рассмотрены вопросы, связанные с рассмотрением споров по защите объектов интеллектуальной собственности в судах, существующие проблемы на практике при рассмотрении таких дел, а также зарубежный опыт в этой области. Поскольку защита прав на интеллектуальную собственность является относительно новой и быстро развивающейся сферой, отмечается, что число дел данной категории в судах растет из года в год, при этом такие споры рассматриваются одновременно в административных, уголовных, гражданских и экономических судах. Кроме того, подробно обсуждаются специализированные суды по интеллектуальной собственности в зарубежных странах, а также место Узбекистана в международных рейтингах по защите интеллектуальной собственности. На основе опыта передовых зарубежных государств предложены соответствующие рекомендации по совершенствованию этой сферы.

**Abstract**

The article examines the handling of disputes related to the protection of intellectual property objects in courts, the practical problems encountered in dealing with such cases, and foreign experience in this area. Given that the field of intellectual property rights protection is relatively new and rapidly developing, it is noted that the number of such cases in courts has been increasing annually, with these disputes being heard simultaneously in administrative, criminal, civil, and economic courts. Additionally, the article discusses specialized intellectual property courts in foreign countries and Uzbekistan's position in international rankings regarding the protection of intellectual property rights. Based on the experience of advanced foreign states, relevant recommendations for improving this field are provided.

**Kalit so'zlar:** intellektual mulk huquqi, appellatsiya kengashi, Intellektual mulk sudsulari, Jahon savdo tashkiloti, ma'muriy javobgarlik, patent.

**Ключевые слова:** право интеллектуальной собственности, апелляционная коллегия, суды по интеллектуальной собственности, Всемирная торговая организация, административная ответственность, патент.

**Key words:** intellectual property law, appellate board, intellectual property courts, World Trade Organization, administrative responsibility, patent.

**KIRISH**

Mamlakatimizda intellektual mulkning huquqiy asoslarini takomillashtirilishi, intellektual mulk obyektlarini samarali himoya qilish mexanizmlarining yo'lga qo'yilganligi natijasida sudsardagi

intelлектуал мулк билан bog'liq bo'lgan ishlар sonи yildan yilga ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Jinoyat sndlari tomonidan intellectuал mulk sohasida ma'muriy huquqbuzarlikka oid 2011-yilda bor yo'g'i **22 ta** shunday ish ko'rilgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich **100 ta**, 2020-yilda **185 ta**, 2021-yilda bu **213 tani**, 2022-yilda **267 tani** tashkil etgan.

Shu bilan birga, intellectuал mulk obyektlari bilan bog'liq bo'lgan nizolar bir vaqtning o'zida ma'muriy, jinoyat, fuqarolik hamda iqtisodiy sndlarda ko'rib chiqilmoqda.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILII VA METODLAR**

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 177-, 177<sup>1</sup>-, 177<sup>2</sup>-moddalari, Jinoyat kodeksining 149-moddasi bo'yicha ishlар Jinoyat sndlari tomonidan, intellectuал mulk huquqini buzilishi bilan yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlarni undirish bilan bog'liq ishlар fuqarolik sndlari, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi intellectuアル mulk huquqini buzilishi bilan bog'liq nizolar iqtisodiy sndlар tomonidan ko'rib chiqilmoqda.

Intellektuアル mulkning huquqiy himoyasi bo'yicha Ma'muriy sndlarda 2021-yilda 22 ta, 2022-yilda 32 ta, 2023-yilda 20 ta ishlар ko'rilgan<sup>17</sup>.

Biroq, ma'muriy, fuqarolik hamda iqtisodiy sndlarda intellektuアル mulk obyektlari bilan bog'liq bo'lgan nizolar yuzasidan ko'rilgan **ishlar statistikasi yuritilmasligi** bois mazkur sndlarda intellektuアル mulkka oid ishlار yuzasidan ma'lumot mavjud emas.

Intellektuアル mulk sohasidagi nizolarni sudgacha ko'rib chiqish bo'yicha yana bir institut Adliya vazirligining Apellatsiya kengashiga murojaatlar kamligicha qolmoqda.

Xususan, Adliya vazirligining Apellatsiya kengashi tomonidan 2022-yilda **101 ta**, 2023-yil **128 ta**, 2024-yilning 1-avgust holatiga **35 ta** appellatsiya shikoyati ko'rib chiqilgan.

**Mamlakatimizda intellektuアル mulk bilan bog'liq nizolarni ko'rishga alohida e'tibor qaratilmasligi, ixtisoslashgan sud tizimi mavjud emasligi O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoniga hamda xalqaro reytinglardagi o'rniga salbiy ta'sir etmoqda.**

Xususan, ushbu sabablar tufayli AQSHning 2023-yilgi "Special 301 Report" hisobotida<sup>18</sup> intellektuアル mulk huquqlarini yetarli darajada huquqiy himoya qilmaydigan davlatlar qatoriga kiritilgan bo'lsa, Menejmentni rivojlantirish xalqaro instituti (IMD) ning 2023-yilgi "Mamlakatlarning raqobatbardoshlik reytingi"<sup>19</sup> (World Competitiveness Ranking)ga kiritilmagani ligining sabablaridan biri bo'lgan.

Shuningdek, Jahon savdo tashkiloti (WTO)ning barcha a'zolari imzolashi majburiy bo'lgan Intellektuアル mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha (TRIPS) shartnomasining 41 – moddasida JST a'zolariga intellectuアル mulk bo'yicha sndlар tashkil qilish majburiyatini yuklamasa-da, intellektuアル mulk bo'yicha sndlар mavjud bo'lishi maqsadga muvofiqligi keltirilgan.

Demak, mamlakatimiz intellectuアル mulk sohasini huquqiy muhofaza qilish tizimini qayta ko'rib chiqishi, shu yo'naliшga ixtisoslashgan alohida sndlар tashkil etishi Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini yanada tezlashtirish imkonini beradi.

#### **Intellektuアル mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni sud orqali hal qilish mexanizmlari**

Jahon savdo tashkiloti (WTO)ga a'zo mamlakatlarning aksariyatida ixtisoslashgan sndlар va tribunallar tashkil etilgan.

Butunjahon intellectuアル mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan tashkilotga a'zo davlat o'rtasida har yili "Intellektuアル mulk huquqlarini himoya qilish indeksi bo'yicha dunyo davlatlari reytingi" e'lon qilinib boriladi.

Ta'kidlash lozimki, aynan shu reytingda yetakchilik qilayotgan **Shvetsariya, Shvetsiya, Finlandiya, Fransiya, Germaniya, Koreya** davlatlarida intellectuアル mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiquvchi maxsus ixtisoslashgan sndlар tashkil etilganligi yana bir bor ushbu sndlarning ahamiyatga molik omillardan biri deb baholasak bo'ladi.

Shuningdek, **Xitoy, Belgiya, Braziliya, Vengriya, Gonkong, Daniya, Isroil, Eron, Ispaniya, Italiya, Kanada, Gollandiya, Norvegiya, Pokiston, Panama, Ruminiya, Sloveniya, Slovakiya, Janubiy Amerika mamlakatlari, Rossiya, Turkiya** kabi davlatlarning

<sup>17</sup> <https://stat.sud.uz/mib.html>

<sup>18</sup> <https://ustr.gov/sites/default/files/2023-04>

<sup>19</sup> <https://www.imd.org/centers/wcc/world-competitiveness-center/rankings/world-competitiveness-ranking>

## SIYOSAT

umumyurisdiksiya sndlari tizimida intellektual mulkka doir ishlarni ko'rib chiquvchi maxsus, ya'ni ixtisoslashgan sud tarkiblari tashkil etilgan.

Intellektual mulk huquqlarini huquqiy himoya **qilish sohasida** ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarning **ijobiy** tajribalaridan amalda foydalanish, sud tizimiga tadbiq etish maqsadida tahlil qilindi. Xususan, Rossiya Federatsiyasining 2011-yil 6-dekabrdagi 4-sonli Federal konstitutsiyaviy qonuniga asosan **Intellektual huquqlar bo'yicha sud (SIP)**<sup>20</sup> tashkil qilinib, 1996-yil 31-dekabrdagi "Rossiya Federatsiyasi sud tizimi to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirish kiritildi.

Mazkur qonunning 26<sup>1</sup>-moddasiga asosan intellektual huquqlar bo'yicha sud **ixtisoslashtirilgan arbitraj sudi** bo'lib, o'z vakolatlari doirasida birinchi va cassatsiya instansiyalari sudi sifatida intellektual huquqlarni himoya qilish bilan bog'liq ishlarni ko'radi.

Ya'ni, Intellektual mulk huquqlari bo'yicha sud arbitraji sndlari tizimida **intellektual mulk bilan bog'liq ishlarni ko'radigan alohida sud** hisoblanadi.

Rossiyada faqat bitta SIP (Intellektual mulk huquqlari bo'yicha sud) mavjud. Boshqa hududlarda vakolatxonalar mavjud emas. Shu bois mazkur sudda intellektual mulk bilan bog'liq ishlar yurisdiksiya yoki boshqa geografik cheklovlsiz ko'rib chiqiladi.

2021-yilda SIP (Intellektual mulk huquqlari bo'yicha sud) 2 625 ta ishni ko'rib chiqqan. Ularning aksariyati intellektual mulk huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq. Misol uchun, agar Rospatent va Patent nizolari palatasi kompaniyaga taniqli tovar belgisi maqomini berishdan bosh tortsa, SIPga murojaat qilinadi. Yoki aksincha, agar kompaniya tovar belgisini olgan bo'lsa, lekin undan foydalanmasa, raqobatchi huquqiy himoyani muddatidan oldin tugatish va brendni o'zlar uchun olish uchun SIP (Intellektual mulk huquqlari bo'yicha sud)ga murojaat qilishi mumkin.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Intellektual mulk huquqlari bo'yicha sudda ishlar **sudyalar hay'ati** yoki **sud rayosati** tomonidan ko'rib chiqiladi. Xususan, **Shvetsariya federal patent sudi**<sup>21</sup> Shvetsariya parlamentining 2009-yil 20-martdagи "Federal patent sudi to'g'risida"gi qonuniga asosan tashkil etilgan bo'lib, 2012-yil 1-yanvardan ish boshlagan.

Federal patent sudi Shvetsariyaning birinchi instansiya patent sudi hisoblanadi hamda o'z qarorlarini Federal Oliy sudning quyi sudi sifatida chiqaradi.

Shvetsariya federal patent sudida **ikki nafar doimiy sudyalar**, shuningdek, **41 nafar doimiy bo'limgan sudyalar** mavjud bo'lib, ulardan **28 nafari texnik mutaxassis** va **13 nafari yuridik tayyorgarlikka ega sudyalardan** iborat. Ularning barchasi patent huquqi bo'yicha maxsus bilimga ega.

Federal Patent sudi quyidagi **vazifalarni** amalga oshiradi:

a. patentlarning haqiqiyligi va ularning huquqbazarliklari to'g'risidagi nizolar va litsenziya berish harakatlar yuzasidan ishlarni ko'rib chiqish;

b. murojaatda belgilangan holatlar ko'rib chiqilgunga qadar dastlabki chora-tadbirlarni belgilash;

c. qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta'minlash.

Shuningdek, u patentlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa fuqarolik da'volarida, xususan, patentlarni olish yoki ularni berish bo'yicha huquqlarga ega. Federal Patent sudining yurisdiksiyasi hududiy sndlarning vakolatiga to'sqinlik qilmaydi.

Agar patentning haqiqiy emasligi yoki buzilishi to'g'risida hududiy (katonal) sudda dastlabki savol tug'ilsa yoki himoya asosida ko'rib chiqilishi kerak bo'lsa, suda tomonlarga Federal Patent sudiga patentni haqiqiyligi yoki nizo to'g'risidagi da'vo arizasi bilan murojaat qilish uchun tegishli muddat beradi. Hududiy (katonal) sudlar da'vo bo'yicha yakuniy va mutlaq qaror qabul qilingunga qadar ish yuritishni to'xtatadi. Belgilangan muddatda Federal Patent sudiga hech qanday da'vo berilmasa, hududiy (katonal) sudlar sud ish yuritishni davom ettiradi va dastlabki savol yoki himoya e'tiborga olinmaydi.

Agar sndlarning tomon patentning haqiqiy emasligi yoki buzilganligi to'g'risida qarshi da'vo bilan murojaat qilsa, hududiy (katonal) sud ikkala da'veoni ham Federal Patent sudiga yuboradi.

**Xitoyda** intellektual mulk uchun sud himoyasi tizimi, dastlab, xalq sudlov tizimiga asoslangan, vaqt o'tishi bilan **alohida sud tizmi** sifatida rivojlanadi. Xususan, 1992-yil oktabrda

<sup>20</sup> <https://ipc.arbitr.ru/about/about>

<sup>21</sup> П.Н.Бирюков «Федеральный административный суд Швейцарии». 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/federalnyy-administrativnyy-sud-shveysarii/viewer>

Xitoy oliv xalq sudi o'zining intellektual mulk huquqlari bo'limini tashkil etadi. 1993-yil avgust oyida Pekin oliv xalq sudi va o'rta bo'g'in xalq sudlarida ham **intellektual mulk huquqlari bo'limlari**, keyin esa butun mamlakat bo'ylab barcha xalq sudlarida tashkil etiladi.

2014-yil noyabr oyidan **Pekin, Guanchjou** va **Shanxayda intellektual mulk sudlari** ketma-ket tashkil etiladi. 2017-yildan beri hozirga qadar **21 ta** ixtisoslashtirilgan IP sudlov organlari (tribunal), jumladan Chengdu, Nankin, Suzhou va Uxanda tashkil etiladi.

2019-yil yanvarda patent, monopoliya va boshqa yuqori darajadagi texnikaviy fuqarolik va ma'muriy apellyatsiya ishlarni ko'rib chiqadigan **Intellektual mulk sudi** tashkil qilinadi.

#### **Ixtisoslashtirilgan intellektual mulk sudi** quyidagi ishlarni ko'radi:

- Ixtiro patenti, foydali model patenti va texnologiya bilan bog'liq boshqa intellektual mulkka oid fuqarolik shikoyatlari;

- Patent berish va bekor qilish bo'yicha texnologiya bilan bog'liq ma'muriy apellyatsiya ishlari;

- Ikkinchchi instansiyada texnologiya bilan bog'liq intellektual mulkka oid ma'muriy ishlar;

- Birinchi instansiyada kuchga kiradigan texnologiya bilan bog'liq intellektual mulkka oid fuqarolik va ma'muriy ishlarni qayta ko'rish.

O'zbekiston Respublikasi sud tizimida intellektual mulk bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish lozim.

#### **XULOSA**

Xususan, intellektual mulk bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini quyidagi bosqichlarda takomillashtirish maqsadga muvofiq:

##### *Birinchi bosqichda:*

- respublika va har bir viloyat darajasida sudlarda intellektual mulk bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish yuzasidan **sudyalarni malakasini oshirish**.

- sudlarga intellektual mulk bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishda ishni mohiyatidan kelib chiqib **mutaxassis(ekspert)larni jalb qilish majburiyatini yuklash**.

##### *Ikkinchchi bosqichda:*

- Sudlarning (fuqarolik, jinoyat, iqtisodiy va ma'muriy) intellektual mulk bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqishdagi **vakolatlarini aniq belgilash**.

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzurida ixtisoslashtirilgan **Intellektual mulk sudini** tashkil etish.

##### *Uchinchi bosqichda:*

- Viloyatlar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahar sudlari tarkibida ixtisoslashtirilgan **Intellektual mulk sudlarini** tashkil etish.

- Intellektual mulk sohasida ixtisoslashgan sudlarning tashkil etilishi intellektual mulk huquqi buzilishining oldini olish bilan bir qatorda yagona sud amaliyotini joriy etilishiga, ishlar professional va holis ko'rib chiqilishiga zamin yaratadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Oliy Sud saytining statistika bo'limi <https://stat.sud.uz/mib.html>
2. The Office of the United States Trade Representative <https://ustr.gov/sites/default/files/2023-04>
3. World Competitiveness Center <https://www.imd.org/centers/wcc/world-competitiveness-center/rankings/world-competitiveness-ranking>
4. Суд по интеллектуальным правам <https://ipc.arbitr.ru/about/about>
5. П.Н.Бирюков Федеральный административный суд Швейцарии. 2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/federalnyy-administrativnyy-sud-shveytsarii/viewer>